



UDK: 336.22(584.4)(091)

Zulxumor M. MAHKAMOVA,
Tadqiqotchi,
E-mail zulkhumor0101@gmail.com, ORCID: 0009-0004-4355-1125

Dots., PhD R. Duschanov taqrizi asosida

CLASSIFICATION OF NORMATIVE-LEGAL DOCUMENTS ON TAX POLICY IN THE TURKESTAN ASSR

Annotation

This article analyzes the types and classification of normative-legal documents related to the implementation and regulation of tax policy in the Turkestan ASSR. It examines the role of decrees, resolutions, regulations, instructions, and other legal documents adopted during the early years of Soviet rule in the formation of the tax system. Furthermore, based on archival sources, the article considers the significance of these documents in establishing and collecting taxes and levies, as well as in regulating financial relations. By examining the legal foundations of tax policy in the Turkestan ASSR, the article reveals the specific features of the formation and development of the tax system during this period.

Keywords: Turkestan ASSR, tax policy, normative-legal documents, decree, resolution, regulation, instruction, tax system, taxes and levies, financial policy, archival sources.

КЛАССИФИКАЦИЯ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ ДОКУМЕНТОВ ПО НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКЕ В ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР

Аннотация

В данной статье анализируются виды и классификация нормативно-правовых документов, связанных с осуществлением и регулированием налоговой политики в Туркестанской АССР. Рассматривается роль декретов, постановлений, положений, инструкций и других правовых документов, принятых в первые годы советской власти, в формировании налоговой системы. Кроме того, на основе архивных источников освещается значение данных документов в установлении и взимании налогов и сборов, а также в регулировании финансовых отношений. Изучение правовых основ налоговой политики в Туркестанской АССР позволяет раскрыть особенности формирования и развития налоговой системы данного периода.

Ключевые слова: Туркестанская АССР, налоговая политика, нормативно-правовые документы, декрет, постановление, положение, инструкция, налоговая система, налоги и сборы, финансовая политика, архивные источники.

TURKISTON ASSRDA SOLIQ SIYOYATIGA OID ME'YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR TASNIFI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Turkiston ASSRda soliq siyosatini amalga oshirish va tartibga solishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarning turlari hamda tasnifi tahlil qilinadi. Unda sovet hokimiyatining dastlabki yillarida qabul qilingan dekretlar, qarorlar, nizomlar, yo'riqnomalar va boshqa huquqiy hujjatlarning soliq tizimini shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, mazkur hujjatlarning soliq va yig'implarni belgilash, undirish hamda moliyaviy munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati arxiv manbalari asosida ko'rib chiqiladi. Maqolada Turkiston ASSR soliq siyosatining huquqiy asoslarini o'rganish orqali ushbu davrdagi soliq tizimining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Turkiston ASSR, soliq siyosati, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, dekret, qaror, nizom, yo'riqnoma, soliq tizimi, soliq va yig'implar, moliya siyosati, arxiv manbalari.

Kirish. Turkiston ASSRda soliq siyosatining shakllanishi va rivojlanishi XX asrning 20-yillari boshlarida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy islohotlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ushbu davrda davlat tomonidan xo'jalik faoliyatini tartibga solish, budjet daromadlarini shakllantirish va turli soliq hamda yig'implarni undirishning huquqiy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu sababli Turkiston ASSRda soliq siyosatining mazmun-mohiyatini o'rganishda uni tartibga solgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turkiston ASSRda soliq siyosatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tasniflash masalasini tadqiq etishda ushbu davrning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy tarixiga oid ilmiy adabiyotlar hamda birlamchi manbalar muhim ahamiyatga ega. Mazkur mavzu doirasida foydalanilgan manbalarni mazmuni va xususiyatiga ko'ra tarixiy asarlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plamlari,

ensiklopedik va elektron manbalar hamda arxiv hujjatlariga ajratish mumkin.

Sh.Jo'rayev, S.Boboyevlarning "Mahalliy soliqlar tarixi" asari xalqimiz tarixidagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarni yoritganligi hamda X.Sobirovning "O'zbekiston davlat mo'ljasi tarixi asarlari ham mavzuni o'rganilishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqotda Turkiston ASSRda soliq siyosatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni aniqlash, tizimlashtirish va tasniflashda tarixiylik, xolislik, tizimlilik va manbashunoslik tamoyillariga asoslanildi. Tadqiqotning asosiy manbalarini O'zbekiston Milliy arxivi hujjatlari, sovet hokimiyati tomonidan qabul qilingan dekret va qarorlar to'plamlari hamda mazkur davr tarixiga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy metod orqali turli yillarda qabul qilingan soliq va moliyaga oid hujjatlarning

mazmuni o'zaro taqqoslandi. Manbashunoslik tahlili yordamida hujjatlarning kelib chiqishi, mazmuni, huquqiy xususiyati va tarixiy ahamiyati o'rganildi. Tasniflash va tizimlashtirish metodlari asosida me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan davri, hujjat turi va tartibga solgan soliq munosabatlariga ko'ra guruhlariga ajratildi.

Tahlil va natijalar. Turkiston ASSRda soliq siyosatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, mazkur davrda soliqqa oid huquqiy me'yorlar mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatga qarab bosqichma-bosqich shakllangan. Soliq siyosatini tartibga soluvchi hujjatlar dastlab oziq-ovqat mahsulotlarini davlat tasarrufiga olish va xo'jalik resurslarini safarbar etishga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik davlat budgetini shakllantirish va bozor munosabatlarini tartibga solish vazifalariga yo'naltirildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, Turkiston ASSRdagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni mazmuni va vazifasiga ko'ra uch asosiy guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga oziq-ovqat razvyorstkasi va majburiy davlat yig'implariga oid hujjatlar kiradi. Ikkinchi guruhni 1921-yildan boshlab joriy etilgan oziq-ovqat solig'i va boshqa xo'jalik soliqlarini tartibga soluvchi hujjatlar tashkil etadi. Uchinchi guruhga esa yer-suv solig'i, savdo va boshqa soliqlarni belgilash hamda undirishga oid qaror, nizom va yo'riqnomalar kiritiladi.

XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy o'zgarishlar natijasida mintaqada yangi davlat tuzilmalari vujudga kela boshladi. Ana shunday tarixiy sharoitda Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil topgan. U Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi (RSFSR) tarkibida tuzilgan bo'lib, markazi Toshkent shahri edi. 1920-yil Turkiston ASSR ma'muriy jihatdan 6 oblastga bo'lingan. Ular 32 uyezd, 466 volost va 3925 qishloq jamoasiga taqsimlangan.

Turkiston ASSRdagi oblastlar va uyezdlar:

Sirdaryo oblastida 7 uyezd bo'lgan: Kazali, Perovsk, Chernyayev, Turkiston, Avliyoota, Toshkent, Mirzacho'l:

Amudaryo oblastida 2 uyezd bo'lgan: Shuraxon, Chimboy.

Yettisuv (Semirechye) oblastida 7 uyezd bo'lgan: Lepsin, Kopal, Jarkent, Qorako'l, Narin, Pishpek, Verniy.

Farg'ona oblastida 7 uyezd bo'lgan: Andijon, O'sh, Marg'ilon, Namangan, Qo'qon, Xo'jand, Pomir.

Samarqand oblastida 4 uyezd bo'lgan: Samarqand, Kattaqo'rg'on, Jizzax, O'ratape.

Turkman oblastida 4 uyezd bo'lgan: Marv, Tajan, Poltoratsk, Krasnovodsk[1].

XX asr boshlarida Turkiston ASSR hududida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida soliq siyosati davlat boshqaruvining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Fuqarolar urushi, iqtisodiy inqiroz va xo'jalik aloqalarining izdan chiqishi sharoitida sovet hokimiyati tomonidan yangi moliya-soliq tizimini yaratish zarurati vujudga keldi. Mazkur jarayonda soliq siyosatini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

Turkiston ASSRda soliq siyosati dastlab RSFSR va markaziy sovet organlari tomonidan qabul qilingan dekretlar va qarorlar asosida joriy etilgan bo'lsa-da, hududning iqtisodiy, ijtimoiy va milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda mahalliy normativ-huquqiy hujjatlar ham ishlab chiqildi. Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, Xalq Komissarlari Kengashi, Moliya xalq komissarligi hamda soliq yig'uv organlari tomonidan chiqarilgan qarorlar, yo'riqnomalar va nizomlar soliq munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy asosni tashkil etdi[2].

Mazkur davrda qabul qilingan soliq siyosatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar turli y o'nalishlarni qamrab olgan

bo'lib, ular bevosita va bilvosita soliqlar, natural majburiyatlar, favqulodda soliq yig'implari, aksizlar hamda soliq imtiyozlarini belgilash masalalarini o'z ichiga olgan. Shu bilan birga, soliq nazorati, hisobot yuritish, qarzdorlikni undirish va jazolash mexanizmlari ham aynan ushbu hujjatlar orqali tartibga solingan.

Bu yillarda o'lkadagi xarbiy iqtisodiy vaziyat juda murakkab edi. Fuqarolar urushi tufayli Turkiston xalqa ichida qolib, xarbiy jixatdan xar tomonlama o'rab olingan, joylarda qad ko'targan sovet xukumatining dastlabki hokimiyatini mustaxkamlash uchun iqtisodiy, madaniy boshqarish tadbirlarini amalga oshirish moliyaviy masalalar bilan chambarchas bog'langan edi. Dastlab joylardagi maxalliy hokimiyat o'z holicha moliyaviy tadbirlarni amalga oshira boshladi. Soliklarni To'lash va undirish bilan shug'ullanuvchi maxkama bo'lmaganligi tufayli, xatto RSFSRda joriy qililingan 10 mlrdli favqulodda inqilobiy soliq ham, amalga oshirilmadi. Faqat keyinchalik Turkistonga kelgan 1919-yil oxirida Turkkommissiya soliqlar bo'yicha boshboshdoqlikni tugatish maqsadida qator tadbirlar o'tkazishga kirishdi[3].

Turkiston ASSR davridagi soliq siyosatini tartibga solgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni kompleks va ilmiy asosda tasniflash orqali soliq tizimining amaliy ijrosi, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini hamda mahalliy sharoitga moslashuv darajasi aniqroq namoyon bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, sovet davri moliya siyosatini tarixiy-huquqiy jihatdan chuqurroq tahlil qilishga xizmat qiladi.

Shu boisdan, hozirda Turkiston ASSR davrida soliq siyosatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarning asosiy turlari, ularni tasniflash mezonlari hamda tarixiy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi.

Turkiston ASSR davri soliq ishini o'rganish O'zMA turli fondlari asosida amalga oshirish mumkin. Bunda asosan Moliya vazirligiga tegishli fondlar, shu davr statistikasini ifodalovchi fondlar, iqtisodiyotga oid fondlarni asos sifatida olishimiz mumkin.

1917-yil oktyabr to'ntarishidan so'ng sovet hokimiyati Turkistonda o'zining moliyaviy-iqtisodiy siyosatini joriy eta boshladi[4]. 1918-yil 30-aprelda Turkiston Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi (keyinchalik Turkiston ASSR) tashkil etilishi bilan soliq tizimi tubdan o'zgardi[5].

Arxiv hujjatlaridan berilgan ma'lumotlarga ko'ra 1918-yil 12-noyabrda RSFSR Xalq Komissarlari Soveti tomonidan qabul qilingan "Oziq-ovqat diktaturasi to'g'risida"gi Dekret Turkiston hududida ham tatbiq etildi. Ushbu dekretga ko'ra, davlat ehtiyojlari uchun aholining ortiqcha oziq-ovqat mahsulotlarini majburiy ravishda tortib olish joriy etildi. Ishchilar va Qizil Armiya manfaatlarini ta'minlash, shuningdek, ocharchilik qarshi qat'iy kurash olib borish maqsadida qaror qilib quyidagilar belgilab qo'yiladi:

Hududlarda oziq-ovqat masalasida davlat diktaturasi joriy etilishi;

Don, un, yorma va boshqa asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining barcha ortiqcha zahiralari davlat mulki deb e'lon qilishi;

Oziq-ovqat mahsulotlarining ortiqcha zahiralari: a) davlat tomonidan belgilangan narxlarda; b) belgilangan tartibda majburiy ravishda topshirilishi shart deb hisoblanishi;

Oziq-ovqat mahsulotlarini yashirgan, davlatga topshirishdan bosh tortgan shaxslar inqilobiy sud oldida javobgarlikka tortilishi

Oziq-ovqat mahsulotlarini majburiy yig'ib olish (rekvizitsiya) vazifasi: a) mahalliy sovet organlariga; b) oziq-ovqat komissarliklariga; c) qurolli oziq-ovqat otryadlariga yuklatilishi;

Oziq-ovqat mahsulotlarini noqonuniy savdoga chiqarish, yashirin oldi-sotdi bilan shug'ullanish qat'iy tanqiqlanishi:

Ushbu dekret e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kirishi va RSFSRning barcha hududlarida, shu jumladan Turkiston o'lkasida ham majburiy hisoblanishi[6].

Arxiv ma'lumotlarida berilishicha 1918-yil davomida Turkiston ASSRda pul shaklidagi soliqlar deyarli bekor qilinib, boy qatlamlardan favqulodda inqilobiy soliq undirish amaliyoti qo'llanildi. Bu holat 1918-yil oxirida Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Sovetining maxsus qarorlari bilan mustahkamlandi. Qarorda quyidagi masalalar ko'riladi:

- Inqilob manfaatlari va Qizil Armiya ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida Turkiston ASSR hududida favqulodda inqilobiy soliq joriy etilishi;

- Mazkur soliq, avvalo, boy savdogarlar, sanoatchilar, yirik yer egalari va sobiq mulkdor qatlamlar hisobidan undirilishi;

- Favqulodda inqilobiy soliq bir martalik b o'lib, uning miqdori mahalliy sovet organlari tomonidan to'lovchining mol-mulk holatidan kelib chiqib belgilanishi;

- Soliqni to'lashdan bo'yin tovlagan shaxslar inqilobiy tartibda javobgarlikka tortilsin, zarur hollarda mol-mulk musodara qilinishi.

Hamda ushbu qarorning ijrosi mahalliy sovetlar va moliya bo'limlari zimmasiga yuklatilish masalalari[8].

Arxiv hujjatlarini o'rganish davomida 1919-yil 15-yanvarda Turkiston XKSning "Don va yem-xashak razvyorstkasi to'g'risida"gi Qarori qabul qilinib, u Turkiston ASSRda dehqon xo'jaliklariga majburiy ravishda yuklatildi. Natijada soliq munosabatlari bozor mexanizmlaridan butunlay uzilib, ma'muriy-buyruqbozlik usuliga o'tilgani haqida ma'lumot olindi.

Bumga ko'ra ishchilar sinfi va Qizil Armiya ehtiyojlarini ta'minlash, shuningdek, don ta'minotidagi inqirozni bartaraf etish maqsadida Turkiston Xalq Komissarlari Soveti qaror qildi:

Turkiston hududida dehqon xo'jaliklarida mavjud b o'lgan don va yem-xashakning ortiqcha qismi davlat foydasiga majburiy ravishda topshirilishi belgilansin.

Don va yem-xashakni majburiy yig'ib olish razvyorstka tartibida amalga oshirilsin.

Razvyorstka bo'yicha topshirilishi lozim b o'lgan don va yem-xashak miqdori: a) guberniyalar; b) uездlar; c) volostlar kesimida markaziy oziq-ovqat organlari tomonidan belgilanadi.

Dehqon xo'jaliklarida shaxsiy iste'mol, urug'lik va x o'jalik ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan minimumdan ortiq mahsulotlar ortiqcha mahsulot deb hisoblansin.

Don va yem-xashakni topshirishdan b o'yin tovlagan shaxslar inqilobiy qonunlarga muvofiq javobgarlikka tortilsin.

Mazkur qarorning ijrosi: a) Oziq-ovqat xalq komissarligiga; b) mahalliy sovetlarga; c) oziq-ovqat otryadlariga yuklatilsin.

Ushbu qaror e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi va RSFSRning barcha hududlarida majburiy hisoblanadi[9].

Mazkur qaror RSFSR hududida harbiy kommunizm siyosati doirasida joriy etilgan don razvyorstkasi tizimini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, u dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy erkinligini keskin cheklagan hujjat hisoblanadi. Qarorga ko'ra dehqon xo'jaliklarida mavjud bo'lgan don va yem-xashakning shaxsiy iste'mol, urug'lik hamda xo'jalik ehtiyojlari uchun belgilangan minimumdan ortiq qismi "ortiqcha mahsulot" deb e'lon qilinib, davlat foydasiga majburiy ravishda topshirilishi shart qilib belgilandi. Ushbu mahsulotlarni yig'ib olish razvyorstka tartibida amalga oshirilib, topshirilishi lozim bo'lgan miqdor markaziy oziq-ovqat organlari tomonidan guberniya, uезд va volostlar kesimida belgilandi. Bu holat dehqonlarning real ishlab chiqarish imkoniyatlari va mahalliy sharoitlar hisobga olinmasdan qat'iy rejalari asosida mahsulot tortib olinishiga olib keldi.

Qarorda don va yem-xashakni topshirishdan bo'yin tovlagan shaxslarga nisbatan inqilobiy qonunlar asosida javobgarlik choralari qo'llash belgilangan bo'lib, bu siyosat majburlash va zo'ravonlikka tayanganini ko'rsatadi. Qarorning ijrosi Oziq-ovqat xalq komissarligi, mahalliy sovetlar va qurolli oziq-ovqat otryadlariga yuklatildi, bu esa qishloqlarda davlatning harbiy-ma'muriy nazoratini kuchaytirdi.

1920-yilda Turkiston ASSR MIQ va XKS tomonidan qabul qilingan qarorlarda prodravzyorstkani kuchaytirish, chorvador aholidan ham majburiy natural topshiriqlar olish belgilandi. Bu siyosat qishloq xo'jaligining inqirozga uchrashiga olib keldi[10].

1921-yil sovet moliya-soliq siyosatida burilish davri bo'ldi. 1921-yil 21-martda RSFSR keyinchalik Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tomonidan qabul qilingan "Prodravzyorstkani oziq-ovqat solig'i bilan almashtirish to'g'risida"gi Dekret asosida Yangi iqtisodiy siyosat (Nep) joriy etildi[11].

1923-yil davomida RSFSR MIQning "Yagona qishloq xo'jalik solig'iga o'tish to'g'risida"gi Qarorlari asosida Turkiston ASSRda natural soliqlar bosqichma-bosqich bekor qilindi va pul solig'i ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi[12].

Xulosa va takliflar. 1918-1923-yillarda Turkiston ASSRda soliq siyosatining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari tahlil qilindi. Bobda soliq tizimining asosiy yo'nalishlari, ularni tartibga soluvchi mexanizmlar va siyosiy-iqtisodiy sharoit bilan uzviy bog'liqligi umumiy tarzda bayon etilgan.

Soliq siyosati markaziy qarorlar bilan mahalliy ijro amaliyoti o'rtasida uyg'unlashgan, va bu tizimning rivojlanishida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar muhim rol o'ynagan. Soliq tizimi davr davomida o'zgarib, majburiy yig'imlardan tortib, yagona va tartibli pul solig'i tizimiga o'tish bilan xarakterlangan.

ADABIYOTLAR

1. Ражабов Қ., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг миҳим саналари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.
2. "Декреты Советской власти" электрон манбаси // <http://istmat.info/> (murojat qilingan sana: 13.02.2026).
3. Собиров Х. Ўзбекистон давлат молияси тарихи. – Тошкент, 2002.
4. "1917-yil Oktyabr to'ntarishi"//O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi: <https://qomus.info/encyclopedia/cat-o/oktyabr-tuntarishi-uz> (murojaat qilingan sana: 23.01.2026).
5. "Turkестанская АССР" // Википедия: https://ru.wikipedia.org/wiki/Туркестанская_АССР (murojaat qilingan sana: 04.02.2026).
6. Сборник декретов о финансах 1917-1920. – Петербург: 4-ая государственная типография, 1920.
7. Сборник декретов о финансах 1917-1920. – Петербург: 4-ая государственная типография, 1920.
8. O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat, 35-yig'majild.
9. "Prodravzyorstka" // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi: <https://qomus.info/encyclopedia/cat-p/prodravzyorstka-uz> (murojaat qilingan sana: 23.05.2026).
10. O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat, 128-yig'majild.
11. O'zMA, R-17-fond, 1-ro'yxat, 112-yig'majild.
12. "Turkiston ASSR" // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi: <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/turkiston-assr-uz/> (murojaat qilingan sana: 17.10.2025).